SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBİ OBYEKTI SIFATIDA XARAJATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TASNIFLANISHI	1033
Abdushukurov Eldor Zafarjonovich, Xudaynazarova Dilnoza G'afurovna	
MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK VA YER SOLIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK YONDASHUV.....	1039
Babayev Shavkat Bayramovich	
SAVDO KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBİ VA AUDITINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	1046
Ergashev Davlat Ulug'bek o'g'li, Xudaynazarova Dilnoza G'ofurovna	



SAVDO KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA AUDITINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Ergashev Davlat Ulug'bek o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Buxgalteriya hisobi va menejment" fakulteti
BH-S-521-guruh talabasi
e-mail: ergashevdavlat@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Xudaynazarova Dilnoza G'ofurovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrasida katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0001-1083-2762
e-mail: dilnozaxudaynazarova17@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada savdo korxonalarida xarajatlarni hisobga olish va audit qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi, audit faoliyati va soliq tizimiga oid qonun hujjatlari hamda milliy buxgalteriya standartlarining savdo korxonalarida xarajatlar hisobini yuritishdagi o'рни, xarajatlarni hisobga olish, ularni hujjatlashtirish, moliyaviy natijalarda aks ettirishning amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: xarajatlar hisobi, audit, me'yoriy-huquqiy asoslar, buxgalteriya hisobi, BHMS, IFRS, Soliq kodeksi, moliyaviy hisobot, xarajatlar auditi, moliyaviy nazorat.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения проанализированы нормативно-правовые основы учета и аудита расходов на торговых предприятиях. В исследовании раскрыта роль законодательных актов Республики Узбекистан в области бухгалтерского учета, аудиторской деятельности и налоговой системы, а также национальных стандартов бухгалтерского учета в организации учета расходов на торговых предприятиях. Кроме того, освещены практические аспекты учета расходов, их документального оформления и отражения в финансовых результатах.

Ключевые слова: учет расходов, аудит, нормативно-правовые основы, бухгалтерский учет, НСБУ, IFRS, Налоговый кодекс, финансовая отчетность, аудит расходов, финансовый контроль.

Abstract. This article scientifically analyzes the regulatory and legal framework of cost accounting and auditing in trading enterprises. The study examines the role of the legislative acts of the Republic of Uzbekistan related to accounting, auditing activities, and the tax system, as well as national accounting standards in organizing cost accounting within trading enterprises. In addition, the practical aspects of cost accounting, documentation procedures, and the reflection of costs in financial results are highlighted.

Keywords: cost accounting, audit, regulatory and legal framework, accounting, NAS, IFRS, Tax Code, financial reporting, cost audit, financial control.

KIRISH

Savdo korxonalarida xarajatlarni to'g'ri va tizimli hisobga olish, ularni iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash hamda moliyaviy natijalarga ta'sirini aniq baholash bevosita mamlakatda shakllangan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotga oid normativ-huquqiy tizimga bog'liqdir. Ushbu tizim xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shaffofligi, iqtisodiy barqarorligi va davlat tomonidan samarali nazorat qilinishini ta'minlovchi asosiy instrumentlardan biri hisoblanadi.

Savdo korxonalarida xarajatlar hisobi va auditining me'yoriy-huquqiy asoslari masalasi iqtisodchi olimlar va amaliyotchilar tomonidan keng tadqiq etilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirishning nazariy hamda metodologik asosini shakllantiradi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlarni to'g'ri hisobga olish korxonalar moliyaviy natijalarining haqqoniyligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi. Ayniqsa, savdo korxonalarida muomala xarajatlari, tovar harakati va moliyaviy



natijalarni shakllantirish jarayonlari boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ilmiy manbalarda alohida qayd etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Karimov A.A., Kurbanbayev J.E. va Jumanazarov S.A. tomonidan yaratilgan "Buxgalteriya hisobi" darsligida buxgalteriya hisobining nazariy asoslari, tamoyillari, hisobning nazorat va axborot funksiyalari hamda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalalari keng yoritilgan. [9] Mualliflar buxgalteriya hisobini xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini boshqarishning muhim axborot manbai sifatida baholab, hisob tizimining ishonchliligi moliyaviy nazorat samaradorligini belgilashini ta'kidlaydilar.

Raximov A.A.ning ilmiy qarashlarida savdo korxonalarida muomala xarajatlarini hisobga olish va ularni tasniflash masalalari chuqur tahlil qilingan. [10] Muallif savdo korxonalarida xarajatlarni to'g'ri guruhlash moliyaviy natijalarni aniq shakllantirish va boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilish imkonini berishini asoslab bergan.

Xorijiy iqtisodchi olimlar ilmiy ishlarida ham xarajatlar hisobi va audit tizimining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri keng tadqiq etilgan. Jumladan, xalqaro buxgalteriya maktablari vakillari moliyaviy axborotning haqqoniyliги investorlar ishonchini oshirish va korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. IFRS asosidagi yondashuvlarda xarajatlarni tan olish, ularni davrlar bo'yicha taqsimlash va moliyaviy natijalarga ta'sirini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Maqolada O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, Soliq kodeksi, BHMS hamda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) tadqiqotning asosiy me'yoriy-huquqiy manbalari sifatida o'rganildi. Ushbu hujjatlar savdo korxonalarida xarajatlar hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va auditni tashkil etishning huquqiy hamda metodologik asosini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash, umumlashtirish hamda ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida savdo korxonalarida xarajatlar hisobi va auditing me'yoriy-huquqiy asoslari, milliy va xalqaro standartlarning amaliy ahamiyati hamda audit tizimining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish davlat tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi asosida tartibga solinadi. Ushbu tizim savdo faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, tovar harakati, savdo ustamasi, chakana va ulgurji savdo operatsiyalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan bo'lib, iyerarxik tarzda tashkil etilgan to'rt darajali me'yoriy-huquqiy bazadan iboratdir. Mazkur tizim savdo korxonalarida moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini to'g'ri aks ettirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash hamda ichki nazorat va audit jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobini tartibga solish tizimini quyidagi to'rt darajaga ajratib ko'rsatish mumkin:

Buxgalteriya hisobini tartibga solish tizimining birinchi darajasini qonun hujjatlari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning huquqiy asosini qonun hujjatlari belgilab beradi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar buxgalteriya hisobining umumiy tamoyillari, moliyaviy hisobotlarni tuzish, xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish hamda moliyaviy nazoratni amalga oshirish tartibini belgilaydi. Savdo korxonalarini faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari — tovar aylanmasi, savdo ustamasi, chakana va ulgurji savdo operatsiyalari aynan ushbu qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy huquqiy manbasi O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-aprelda qabul qilingan O'RQ-404-sonli "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni hisoblanadi. [1] Mazkur qonun buxgalteriya hisobini tashkil etishning yagona metodologik asoslarini belgilab beradi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini shaffof yuritishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Qonunning 4-moddasida buxgalteriya hisobiga ta'rif berilgan bo'lib, unda buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyalarini yalpi, uzluksiz va hujjatlar asosida hisobga olish tizimi ekanligi belgilangan. Ushbu modda savdo korxonalarini uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki savdo faoliyatida tovarlarning kirimi va chiqimi, realizatsiya jarayonlari hamda xarajatlar doimiy ravishda hujjatlashtirilib boriladi. Masalan, savdo korxonalarida tovarlarni xarid qilish, omborga qabul qilish va sotish jarayonlari hisob-fakturalar, yuk xatlari hamda kassa hujjatlari asosida rasmiylashtiriladi.

"7-modda. Buxgalteriya hisobi obyektlari — aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar,



xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir. Buxgalteriya hisobi obyektlari sintetik va analitik hisoblarda yuritiladi." Mazkur moddaga ko'ra, aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralalar, daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalar buxgalteriya hisobi obyektlari hisoblanadi. Savdo korxonalarida, ayniqsa, tovar-moddiy zaxiralalar, muomala xarajatlari va realizatsiyadan olingan daromadlarni to'g'ri hisobga olish muhim hisoblanadi. Chunki ushbu ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy barqarorligi va foyda miqdorini aniqlashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Qonunning 11-moddasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tashkil etish masalalari yoritilgan. Ushbu moddaga asosan, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari buxgalteriya hisobi to'g'ri yuritilishi va moliyaviy hisobotlarning o'z vaqtida tuzilishi uchun javobgar hisoblanadi. Savdo korxonalarida bu norma alohida ahamiyatga ega, chunki kundalik tovar aylanmasining katta hajmda bo'lishi hisob ma'lumotlarini tezkor va aniq yuritishni talab qiladi.

13-moddada boshlang'ich hisob hujjatlari va ularga imzo qo'yish huquqi belgilangan. Ushbu modda savdo korxonalarida amalga oshiriladigan barcha xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, tovarlarni qabul qilish, sotish, qaytarish yoki hisobdan chiqarish operatsiyalari tegishli hujjatlar asosida rasmiylashtirilishi lozim. Bu esa moliyaviy ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Qonunning 29-moddasida esa buxgalteriya hujjatlarini saqlash tartibi belgilangan. Unga ko'ra, boshlang'ich hujjatlar, buxgalteriya registrlari va moliyaviy hisobotlar qonunchilikda belgilangan muddat davomida saqlanishi shart. Savdo korxonalarida hujjatlarning saqlanishi audit tekshiruvlari, soliq nazorati va ichki tahlil jarayonlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Savdo korxonalarini faoliyatini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi ham muhim o'rin tutadi. Ushbu kodeks orqali oldi-sotdi shartnomalari, yetkazib berish munosabatlari, mulk huquqi va xo'jalik majburiyatlari tartibga solinadi. Savdo korxonalarining asosiy faoliyati tovarlarni xarid qilish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lganligi sababli Fuqarolik kodeksi normalari ularning huquqiy asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritishda muhim huquqiy manba hisoblanadi. [3] Soliq kodeksi orqali qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lash tartibi belgilanadi. Savdo korxonalarida realizatsiya hajmi yuqori bo'lganligi sababli soliqlarni to'g'ri hisoblash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning ikkinchi darajasini buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) tashkil etadi. Ushbu standartlar xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritishning yagona uslubiy asoslarini belgilab beradi hamda moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga mos ravishda shakllantirilishini ta'minlaydi. Savdo korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish, xarajatlarni tasniflash, daromad va moliyaviy natijalarni shakllantirish aynan milliy standartlar asosida amalga oshiriladi.

Savdo korxonalarini faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan standartlardan biri BHMS №21 "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasini va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi" hisoblanadi. [7] Mazkur standart Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-noyabrdagi 191-son buyrug'i bilan tasdiqlangan bo'lib, xo'jalik operatsiyalarini hisobvaraqlarda aks ettirish tartibini belgilaydi. [7] Ushbu standartda savdo korxonalarini uchun muhim bo'lgan schyotlar tizimi alohida o'rin egallaydi. Jumladan, 2900-"Tovarlar hisobi schyotlari" savdo korxonalaridagi tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish uchun mo'ljallangan. [7] Mazkur schyot orqali omborga qabul qilingan tovarlar, ularning harakati va realizatsiyasi nazorat qilinadi. Masalan, savdo korxonasi yangi tovar kelib tushganda uning xarid qiymati aynan 2900-guruh schyotlarida aks ettiriladi.

BHMS №21da 2980-"Savdo ustamasi" schyoti ham nazarda tutilgan. Ushbu schyot savdo korxonalarida tovarlarning sotish bahosi bilan xarid bahosi o'rtasidagi farqni aks ettirish uchun qo'llaniladi. Ayniqsa, chakana savdo korxonalarida savdo ustamasini to'g'ri hisoblash moliyaviy natijalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan savdo ustamasi korxonaning asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Savdo korxonalarida xarajatlarni hisobga olishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. [4]

Ushbu nizom orqali korxonalarda xarajatlarni guruhlash, ularni mahsulot tannarxiga yoki davr xarajatlariga kiritish tartibi belgilanadi. Unga ko'ra, savdo korxonalarida muomala xarajatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Muomala xarajatlariga transport xarajatlari, reklama xarajatlari, omborda saqlash xarajatlari, ish haqi xarajatlari va boshqa savdo faoliyati bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Ushbu xarajatlarni to'g'ri tasniflash va hisobga olish savdo korxonalarining moliyaviy natijalarini aniq shakllantirish imkonini beradi. Misol uchun, tovarlarni xarid qilish bilan bog'liq transport xarajatlari muomala xarajatlari tarkibida aks ettiriladi va realizatsiya natijalariga bevosita ta'sir qiladi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning uchinchi darajasini metodik hujjatlar,



yo'riqnomalar va nizomlar tashkil etadi. Ushbu hujjatlar qonunlar va buxgalteriya hisobining milliy standartlarida belgilangan umumiy qoidalarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini belgilaydi. Ayniqsa, savdo korxonalarida tovar harakati, muomala xarajatlari, inventarizatsiya jarayonlari hamda tovarlarni baholash tartibini samarali tashkil etishda metodik hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo faoliyatini tartibga soluvchi asosiy metodik hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 26-noyabrda 407-son qarori bilan tasdiqlangan "Ulgurji va chakana savdo faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom hisoblanadi. [5] Mazkur nizom savdo korxonalarida savdo faoliyatini tashkil etish, tovarlarni qabul qilish, saqlash, realizatsiya qilish hamda iste'molchilar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini belgilab beradi. Nizomga muvofiq, savdo korxonalarida realizatsiya qilinayotgan tovarlarning sifati, hujjatlarining mavjudligi va hisobda to'g'ri aks ettirilishi uchun javobgar hisoblanadi. Ayniqsa, tovarlarning kirim va chiqim operatsiyalarini hujjatlashtirish savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Savdo korxonalarida faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir metodik hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qarori bilan tasdiqlangan "Chakana savdo qoidalari" hisoblanadi. [6] Mazkur qoidalar chakana savdo faoliyatini amalga oshirish, xaridorlarga xizmat ko'rsatish, tovarlarni sotish hamda naqd pul va plastik kartalar orqali hisob-kitoblarni yuritish tartibini belgilaydi. Ushbu qoidalarga ko'ra, chakana savdo korxonalarida har bir realizatsiya operatsiyasi tegishli kassa hujjatlari bilan rasmiylashtirilishi shart. Bu esa savdo tushumlarini to'liq hisobga olish va yashirin daromadlarning oldini olish imkonini beradi.

Savdo korxonalarida muomala xarajatlarini hisobga olish va ularni moliyaviy natijalarga o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom asosida amalga oshiriladi. [4] Mazkur nizom savdo korxonalarida xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash va ularni tegishli schyotlarda aks ettirish tartibini belgilaydi. Nizomga muvofiq, savdo korxonalarida transport xarajatlari, reklama xarajatlari, ijara xarajatlari, omborlarni saqlash xarajatlari, savdo xodimlari ish haqi va boshqa muomala xarajatlari davr xarajatlari tarkibida hisobga olinadi. Ushbu xarajatlarni to'g'ri tasniflash moliyaviy natijalarni aniq shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki xarajatlarni noto'g'ri guruhlash foyda ko'rsatkichlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklar ustidan nazoratni tashkil etishda inventarizatsiya qoidalari ham muhim metodik asos hisoblanadi. Inventarizatsiya o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 1999-yil 19-oktabrdagi 105-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 1999-yil 2-noyabrda 833-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" nomli BHMS asosida amalga oshiriladi. [8] Mazkur hujjatga ko'ra, inventarizatsiya jarayonida savdo korxonalaridagi tovar-moddiy boyliklarning haqiqiy mavjudligi aniqlanadi va ular buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamomad yoki ortiqcha qoldiqlar tegishli tartibda rasmiylashtiriladi hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi. Ayniqsa, chakana savdo korxonalarida katta hajmdagi tovar aylanmasi mavjudligi sababli inventarizatsiya ichki nazoratning muhim vositasi hisoblanadi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning to'rtinchi darajasini korxonaning ichki me'yoriy hujjatlari tashkil etadi. Ushbu hujjatlar amaldagi qonunchilik, buxgalteriya hisobi bo'yicha me'yoriy hujjatlar hamda korxonaning faoliyat xususiyatidan kelib chiqib ishlab chiqiladi. Ichki hujjatlar savdo korxonalarida xo'jalik operatsiyalarini samarali tashkil etish, moliyaviy ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash va ichki nazorat tizimini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonaning asosiy ichki hujjatlaridan biri hisob siyosati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RBQ-404-sonli "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasiga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tashkil etish uchun javobgar hisoblanadi. Shu asosda har bir korxonada o'zining hisob siyosatini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Hisob siyosatida korxonada buxgalteriya hisobini yuritish usullari, tovar-moddiy zaxiralarni baholash tartibi, muomala xarajatlarini taqsimlash usullari, amortizatsiya hisoblash tartibi hamda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish tamoyillari belgilanadi. Savdo korxonalarida, ayniqsa, tovarlarni baholash usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, FIFO yoki o'rtacha tortilgan qiymat usullaridan foydalanish realizatsiya qilingan tovarlarning tannarxi va korxonaning yakuniy moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Savdo korxonalarida muhim ichki hujjatlardan yana biri ishchi schyotlar rejasi hisoblanadi. Mazkur hujjat amaldagi schyotlar rejasi va buxgalteriya hisobi bo'yicha me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi. Ishchi schyotlar rejasi korxonaning faoliyat xususiyatidan kelib chiqib shakllantiriladi hamda xo'jalik operatsiyalarini sintetik va analitik schyotlarda aks ettirish tartibini belgilaydi.

Savdo korxonalarida ishchi schyotlar rejasi orqali tovarlar harakati, savdo ustamolari, muomala xarajatlari, realizatsiya daromadlari va hisob-kitob operatsiyalari nazorat qilinadi. Ayniqsa, katta hajmdagi tovar aylanmasiga

ega korxonalarda analitik schyotlarning yuritilishi tovar harakatini batafsil kuzatish va nazorat qilish imkonini beradi.

Korxonaning ichki hujjatlari tarkibiga hujjat aylanishi jadvali ham kiradi. Ushbu jadvalda boshlang'ich hujjatlarning rasmiylashtirilishi, tekshirilishi, buxgalteriyaga topshirilishi va saqlanish muddati belgilanadi. Savdo korxonalarida hisob-fakturalar, yuk xatlari, kirim-chiqim orderlari, kassa cheklari va tovar hisobotlari asosiy hujjatlar sifatida qo'llaniladi. Ushbu hujjatlarning o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirilishi buxgalteriya ma'lumotlarining aniqligi hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlaydi.

Savdo korxonalarida moddiy javobgar shaxslar bilan tuziladigan moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar ham muhim ichki hujjatlardan biri hisoblanadi. Ombor mudirlari, kassirlar va sotuvchilar bilan tuziladigan ushbu shartnomalar orqali tovar-moddiy boyliklarning saqlanishi ustidan nazorat ta'minlanadi. Bu esa kamomad va noqonuniy yo'qotishlarning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, savdo korxonalarida inventarizatsiya o'tkazish bo'yicha buyruqlar, ichki audit reglamentlari, xizmat yo'riqnomalari hamda ichki nazorat qoidalari ishlab chiqiladi. Ushbu hujjatlar korxonada moliyaviy intizomni mustahkamlash, xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini nazorat qilish hamda moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston buxgalteriya hisobi tizimi bosqichma-bosqich xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ga moslashtirilmoqda. Bu jarayon nafaqat hisob yuritish sifatini oshirish, balki mamlakat iqtisodiyotining investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. IFRSga moslashuv savdo korxonalarida xarajatlarni yanada shaffof va xalqaro miqyosda taqqoslanadigan shaklda aks ettirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotga oid normativ-huquqiy asoslar izchil rivojlanib bormoqda. Ushbu tizim savdo korxonalarida xarajatlarni hisobga olish jarayonining nafaqat huquqiy asosini, balki metodologik va amaliy yo'nalishini ham belgilab beradi. Natijada korxonalarda moliyaviy intizom kuchayadi, iqtisodiy qarorlar esa aniq va ishonchli axborotga asoslanadi.

Savdo korxonalarida xarajatlarni hisobga olish jarayonining samarali tashkil etilishi ko'p jihatdan milliy buxgalteriya standartlarining (MBS) amaliyotda to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq. Milliy buxgalteriya standartlari buxgalteriya hisobi tizimining metodologik asosini tashkil etib, xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy operatsiyalarni yagona tamoyillar asosida aks ettirishni ta'minlaydi. Shu jihatdan, MBS nafaqat texnik hisob yuritish hujjati, balki iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborot tizimining asosiy tarkibiy qismi sifatida ham qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, savdo korxonalarida xarajatlarni hisobga olish va audit qilish jarayonining samarali tashkil etilishi bevosita me'yoriy-huquqiy bazaning mukammalligi hamda amaliyotda to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik, milliy buxgalteriya standartlari, Soliq kodeksi va audit faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar savdo korxonalarida moliyaviy operatsiyalarni qonuniy, shaffof va ishonchli yuritishning asosiy huquqiy poydevorini yaratadi. Ayniqsa, xarajatlarni to'g'ri tasniflash, ularni hujjatlar asosida hisobga olish hamda moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirish korxonalarining moliyaviy natijalarini aniq shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida savdo korxonalarida ichki va tashqi audit tizimining samarali yo'lga qo'yilishi moliyaviy intizomni mustahkamlashi, noqonuniy yoki samarasiz xarajatlarning oldini olishi hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashi aniqlandi. Shuningdek, milliy buxgalteriya standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga uyg'unlashtirish savdo korxonalarida moliyaviy axborotning shaffofligi va xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi asoslandi.

Maqolada o'rganilgan masalalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

savdo korxonalarida xarajatlar hisobi va audit jarayonlarini raqamlashtirish hamda avtomatlashtirish tizimlarini keng joriy etish;

ichki audit xizmatlari faoliyatini kuchaytirish va riskka asoslangan audit usullaridan samarali foydalanish;

xarajatlarni hujjatlashtirish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash.

Savdo korxonalarida ushbu takliflarni joriy etish xarajatlar hisobining aniqligi va audit sifatini oshirishga, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashga hamda korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy buxgalteriya va audit tizimlaridan samarali foydalanish korxonalarda moliyaviy boshqaruv sifatini yaxshilab, uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-404-son, 2016-yil 13-aprel. <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
2. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-677-son, 2021-yil 25-fevral. <https://lex.uz/docs/-5307886>
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Yangi tahriri, 2019-yil 30-dekabr. <https://lex.uz/docs/-4674902>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom. <https://lex.uz/docs/-264422>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2002-yil 26-noyabrdagi 407-son qarori. <https://lex.uz/docs/-341453>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-243235>
7. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-noyabrdagi 191-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligida 2024-yil 27-dekabrda 3593-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. <https://lex.uz/docs/-7282737>
8. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-son BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish". Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 141-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligida 2024-yil 12-avgustda 3548-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. <https://lex.uz/ru/docs/-7058433?otherlang=1>
9. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. **Buxgalteriya hisobi**. Darslik. — Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2019. — 624 b.
10. Raximov A.A. **Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobi**. — Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2019.

muhandislik **& iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100